



YOSHLARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Siddiqov Baxtiyor Saidqulovich

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Qodirova Odinaxon Xayitboy qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10649347>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kitobga va kitobxonlik madaniyatiga turli davrlardagi munosabatlar haqida batafsil so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. kitob, kitobxonlik, madaniyat, Renassans, "Yosh kitobxon".

Abstract. This article describes in detail the relationship to the book and reading culture in different periods.

Key words. book, book reading, culture, Renaissance, "Young reader".

Абстрактный. В данной статье подробно описано отношение к книге и культуре чтения в разные периоды.

Ключевые слова. книга, чтение книг, культура, Ренессанс, «Юный читатель».

Kitobxonlik madaniyati degan jumlaning zamirida "kitob" so'zi mavjudki, avvalo kitob o'zi nima degan savolga javob berishimiz kerak. Kitob bu ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan, muqovalangan, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar.¹Kitob o'qish bilan shug'ullanuvchi inson esa kitobxon sanaladi.Kitobxon-jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui. Ma'naviyat esa biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi degan lug'aviy ma'noga ega.²

Kitobxonlik madaniyati esa judayam keng qamrovli tushuncha. Kitob o'qigan har bir insonni biz kitobxonlik madaniyatiga ega shaxs deb hisoblay olmaymiz. Sababi dono xalqimiz ta'kidlaganidek "O'qiganda ham uqish bor". O'qigan ma'lumotini tushunib, undan o'zi uchun kerakli xulosa chiqarolgan inson kitobxonlik madaniyatiga ega insondir. Kitob o'qishninggina o'zi bilan madaniyatli insonga aylanish ham mushkul. Saviyali kitob tanlay olish ham madaniyatning bir belgisi. Ayniqsa hozirgi zamonda,hozirgi kunda insonlarni haqiqiy kitobxon bo'lishi uchun saviyali kitoblar juda zarur.


Kitobga munosabat barcha davrlarda xar hil bo'lgan. Misol tariqasida zardushtiylik davrini oladigan bo'lsak. Ushbu davr va din uchun

¹O'zbek tilining izohli lug'ati.O'zbekiston nashriyoti.2020-yil. 2-jild. 377-b.

²O'zbek tilining izohli lug'ati.O'zbekiston nashriyoti.2020-yil.2-jild. 521-b.



muhim manba bo'lgan "Avesto" o'n ikki ming qoramol terisiga oltin suvi bilan bitilganligi fikrimiz isboti. Keyingi davrlarda ham kitobga munosabat nisbatan iliq bo'lgan. O'rta asrlarda hukmronlik qilgan sulolalar ham o'z davlati tarixini yoritishga alohida ahamiyat bergan. Jumladan, kidariylar, eftallar va somoniylar davrida hammadaniyatga, xususan, kitobga e'tibor kuchli bo'lgan.



Yuqoridagi chizmadan ko'rishimiz mumkinki, kitobga, kitobxonlikka e'tibor kuchaygani sari mamlakat taraqqiyotda ilgarilaydi, rivojlanishda odimlaydi.





Xonliklar davrida madaniyatga, ta'limga kitobxonlikka e'tibor nisbatan kuchli bo'lgan. Lekin Rossiya bosqini va undan keyingi davrda kitobga e'tibor anchayin sustlashadi. Nafaqat kitobga, balki madaniyatning har qanday ko'rinishiga salbiy munosabatda bo'lingan. Rossiya bosqini oqibatida bir qancha nodir asarlar yo'qotilgan, ijodkorlar qurbon qilingan. Ba'zi ma'naviy xazinamiz durdonalari esa yurt xoinlari tomonidan ruslarga topshirilishi natijasida olib ketilgan. Keyinchalik esa yurtni ma'rifatli qilishga uringan shaxslar ham asta-sekin qirila boshlandi. Diniy bilimlarni egallashga urinishlar, Qur'on mutolaasi taqiqlanadi. Xalqni ma'naviyatli qilishga uringan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Anbar Otin, Dilshodi Barnolarning taqdiri ana shunday yakun topadi.

Ruslar O'rta Osiyo xalqlarini abadiy o'zlari tobe qilish maqsadida millatni manqurt qilishni ularning ma'naviyatiga zarba berish orqali amalga oshirishmoqchi bo'ladi. Ammo qancha urinishmasin bosqinchilar ko'zlagan maqsadlariga yetolmaydi. Rossiya imperiyasidan so'ng hokimiyatga kelgan bolsheviklar ham xalqni ma'rifatli qilishga uringan har qanday insonni ayovsiz yo'q qilishadi. Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir kabi ijodkorlar ana shundaylardan edi. Asarlari taqdiri ham mualliflarining qismati kabi ayanchli yakun topadi. Kitob saqlashga urinishlar va kitob mutolaasi uchun qamoq, surgun va hattoki o'ldirish kabi jazolar qo'llanadi. Jahon urushlari davrida ham bu siyosat to'xtatilmaydi. Qator bebaho xazinalar osongina yo'q qilinadi.

Sobiq Sovet Rossiyasi zaiflasha borganida sayin xalqlar ma'naviy qaramlikdan qutilish maqsadida kitobga yanayam kuchliroq mehr qo'yidilar, yozuvchi-shoirlar baralla yurt madhini, ozodlikni tarannum etdilar. Aynan shu davrdan mustaqillik uchun ma'naviy kurash boshlanadi. Shoirlar hurlik ruhiyatini o'z she'rlariga singdiradilar. Yozuvchilar esa nasriy asarlarida millatimizning har qanday sinovlarga bardosh berolishini va bu sinovlarni ham yenga olishini tasvirlaydilar. Shunday qaltis vaziyatda yurtni birlikka, hurlikka chorlaganlar ham omonlikda bo'lmagan, albatta. Ularga "xalq dushmani" sifatida munosabatda bo'lingan va turli usullarda jazolanganlar, azob-uqubatlarga duchor qilinganlar. Shunday damda ham ma'rifatparvarlar kitobni zulmatdan yorug'likka yo'l deb hisoblaganlar. Xalqni ma'rifatli qilishga bel bog'laganlar.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan so'ng adabiyot xazinasining nodir asarlari ona tilimizga tarjima qilinib, kitobxonlarga taqdim etilgani yosh avlodni yanada madaniyatli hamda dunyoqarashi keng insonlar bo'lishi uchun turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan viloyatlarimizda kutubxonalar ochilib, kitob do'konlari soni



ko'paytirilgan bo'lsa, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ushbu ishlar ko'lami kengaytirildi. Yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish maqsadida "Besh tashabbus" loyihasida yo'nalish, "Taraqqiyot-2030" da esa alohida maqsad belgilandi. Bundan tashqari aholi va o'quvchi-yoshlar o'rtasida "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi tashkillandi. Ushbu tanlovning respublik bosqichiga avtomobilning qo'yilgani achinarli, aslini olganda. Sababi kitob o'qish orqali inson birinchi o'rinda o'ziga keyin esa jamiyatga foyda keltiradi. Ma'naviy jihatdan yuksalish moddiy nanfaatga taqalgan jamiyatda esa rivojlanish bo'lmaydi. Kitobni sevgan, undan xalovat topadigan inson uni sevgani uchun, ilm olish o'qiydi, qandaydir muvofiq uchun emas.

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish inson ma'naviyatini, dunyoqarashini o'stiradi, kamol topishida yo'l ko'rsatadi. Insonning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida ham kitob mutolassi alohida ahamiyatga molik. Kitob o'qimagan inson qay darajada xavfli bo'lsa, ana shunday fuqarolari ko'p jamiyatning ertasi qul bo'lish bilan yakun topajak. Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan ajdodlarimizga munosib bo'lish uchun ham rivojlanishdan, har doim harakat qilishdan to'xtamaylik. Zero, ma'naviyatli bo'lish, avvalo, kitobga mehr qo'ya olishdan, uni ixlos bilan mutolaa qilishdan boshlanadi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M "Qonun ustuvorligi inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovidir", T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Usmon Jo'rayev, Qamar Usmonov, Gulira'no Jo'rayeva, Naim Norqulov. 8-sinf "O'zbekiston tarixi". O'qituvchi. Toshkent-2019. 43-, 103-, 147-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.O'zbekiston nashriyoti.2020-yil.2-jild.

